

**USMON AZIMNING “SO‘NGSO‘ZLAR” ASARIDA QO‘LLANGAN  
OKKOZIONAL SO‘ZLAR VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK  
XUSUSIYATLARI**

**Rashidova Sarvinoz Mirzohid Qizi**

Samarqand shahar 12-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
[sarvinozrashidova0212@gmail.com](mailto:sarvinozrashidova0212@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Usmon Azimning “So‘ngso‘zlar” asarida qo‘llangan okkazonial birliklar lingvistik tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor muallif tomonidan yaratilgan so‘zlarning leksik-semantik tabiati, ularning shakl va ma‘no jihatidan o‘zbek tilidagi mavjud birliklardan farqlanishiga qaratilgan. Maqolada okkazonializmlarning badiiy matn mazmunini boyitish, ijodkor uslubini ifodalash va so‘z yasaliş imkoniyatlarini kengaytirishdagi roli ko‘rsatib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Usmon Azim, “So‘ngso‘zlar”, okkazonial birlik, leksik-semantik xususiyat, individual uslub, badiiy nutq.

**LEXICAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF OCCASIONALISMS  
IN USMON AZIM’S “SO‘NGSO‘ZLAR”**

**ABSTRACT**

This article provides a linguistic analysis of the occasionalisms used in Usmon Azim’s “So‘ng so‘zlar”. The main focus is on the lexical and semantic nature of the new words created by the poet, as well as on how these units differ from existing words in the Uzbek language in terms of form and meaning. The article also highlights the role of occasionalisms in enriching the content of the literary text, expressing the poet’s individual style, and expanding the word-formation potential of the Uzbek language.

**Keywords:** Usmon Azim, “So‘ngso‘zlar”, occasionalism, lexical-semantic features, individual style, literary language.

**KIRISH**

Til – xalq ruhining, tafakkurining va madaniyatining eng yuksak ifodachisidir. Til jamiyat bilan birga yashaydi, rivojlanadi va yangilanadi. Shu bois u doimiy harakatda bo‘lgan, yangilikni qabul qila oladigan ijtimoiy aloqa vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodkor esa tilga o‘z individualligi, o‘ziga xos dunyoqarashi orqali hayot baxsh etadi. Har bir yozuvchi yoki shoirning tili o‘ziga xos shaxsiy estetik olamni yaratadi – u tilning imkoniyatlarini yangicha jilolantiradi, yangi so‘z birikmalari, ma‘nolar, ohanglar kashf etadi. Shu jarayonda okkazonial birliklar, ya‘ni ijodkor tomonidan

muayyan badiiy niyat asosida yaratilgan yangi soʻzlar vujudga keladi. Zamonaviy oʻzbek adabiyotining yorqin vakili Usmon Azim ijodida ham tilning bunday imkoniyatlari kengayib boradi.

## ASOSIY QISM

Okkozional birliklar tilda mavjud boʻlmagan va qolipga solinmagan, ijodkorning maʼlum badiiy maqsadni koʻzlab yaratgan yangicha soʻz va birikmalardir. Bu atama lotincha “occasionalis” soʻzidan olingan boʻlib, lugʻaviy maʼnosiga koʻra “tasodifiy” degan tushunchani bildiradi. Lingvistikaga oid lugʻatlarda unga quyidagicha taʼrif beriladi: “Umum tomonidan qabul qilingan qoʻllashlarga mos kelmaydigan, yakkalik xususiyatiga ega boʻlgan, maxsus matn tarkibiga singdirilgan usul, qiyos”. [1]

Okkozional birliklar, asosan, badiiy nutqda uchraydi. Chunki ijodkor uchun soʻzning yangiligi, ohangi va emotsional taʼsiri muhimdir. Usmon Azimning nafaqat sheʼriyatida, balki nasrida ham soʻzlar oddiy leksik birlik sifatida emas, badiiy-estetik maʼno yuklagan vosita sifatida namoyon boʻladi. Quyida muallifning “Soʻngsoʻzlar” asarida uchragan baʼzi okkozional birliklar izohiga toʻxtalamiz. Masalan, asarda uchraydigan *kitobxoʻr* soʻzi okkozional birlik sifatida eʼtiborga loyiq.

*Gapning indallosiga koʻchsam, oʻsha kun Adabiyotga men kabi butun borligʻini bagʻishlab yaxshi koʻradigan, u haqida erta-yu kech tinmay mulohaza qilishga tayyor, kitobxoʻr, atrofda kechayotgan voqealarga, hattoki dunyoga ham oʻzicha munosabatga ega — oʻzimga oʻxshagan odamni — yaqin doʻstni uchratgandim.* [2; 37]

Adabiy tildagi meʼyoriy shakl “kitobxon” boʻlib, bu soʻz kitob oʻquvchi kishi” maʼnosini bildiradi. Koʻrinib turibdiki, okkozionalizmni hosil qilishda affiksoidlar ham ishtirok etadi. Affiksoid asli leksik birlik boʻlib, keyinchalik xuddi affiks kabi bir necha leksemalarga qoʻshilib kelish xususiyatiga ega boʻladi [3;55]. Mazkur soʻzning ikkinchi qismi fors-tojik tilida isteʼmol qilish maʼnosini bildiradi va oʻzbek tilidagi soʻzlar bilan birikkan holatda uchraydi: *oshxoʻr* (palovni yaxshi koʻruvchi inson), *nonxoʻr* (koʻp non yeydigan, nonni yaxshi koʻradigan). Muallif bu komponent orqali kitobni shunchaki oʻquvchi emas, balki kitobni hayotining bir qismi sifatida sezuvchi, undan lazzat oluvchi inson obrazini yaratadi. Bu holatda *-xoʻr* oʻzining semantik xususiyatini saqlagan holda, okkozional soʻz yasash vositasi sifatida ishlatilgan.

Yana bir oʻrinda “*yurakdosh*” soʻzi orqali **-dosh** affiksining okkozionalizm hosil qilishda ishtiroki koʻrinadi. Bu qoʻshimcha “biror narsada sherik, oʻrtoq maʼnosini bildiradi. Masalan, *sinf-dosh*, *saf-dosh*, *xonadosh* kabi. Tilimizda *dildosh* deb ishlatilgan shakli biz uchun tanish boʻlsa-da, bu qoʻllanilishni faqatgina Usmon Azim “Soʻngsoʻzlar” asarining bir necha oʻrinlarida kuzatamiz.

*Erkin bilan tanishgan kunimdan boshlab esa, hamfikr tengdosh, **yurakdosh** do‘st va, aytish mumkinki, to‘ppa-to‘g‘ri adabiy davra topdim. [2; 37]*

*Allaqachonlar ijodidan o‘zimni uzoqroq tutganim bu shoir bilan didimiz bir, **yurakdosh** ekanmiz-da! Yurakdoshlik — juda ajib tuyg‘u. [2; 98]*

Adabiy tilda yurakdosh degan tayyor leksema mavjud emas. Muallif bu so‘z orqali “bir yurakdan o‘tuvchi his-tuyg‘ularga sherik bo‘luvchi inson”, “ruhiy yaqin, qalban birlashgan kishi” ma’nosini ifodalaydi.

Yana bir o‘rinda yangi yasalmanni hosil qilinganini uchratamiz. “Tushunish mumkin bo‘lmagan”, “anglab bo‘lmaydigan” degan ma’noni ifodalash uchun “tushuniksiz” degan okkozionalizmni qo‘llaydi:

*Bunday suhbatlarning yurakni o‘stirguvchi, aqlni charxlovchi va yana allaqanday **tushuniksiz** ta’sir tufayli shoir yuragini kamolot sari eltguvchi ulkan sehri bor edikim, uning bu fazilatini ushbu davradagilar ham keyin — yillar o‘tib anglaydilar. [2; 61]*

O‘zbek adabiy tilida “tushunarsiz” so‘zi ko‘p qo‘llanadi. Misolda bu so‘z oddiy mantiqiy anglashdan tashqari hissiy holatni ifodalaydi. ya’ni, shoirning yuragiga ta’sir qilayotgan kuchni aql bilan izohlab bo‘lmaydi, faqat his qilish mumkin.

Asarda uchraydigan yana bir topilmalarda biri “orkashlik” okkozional so‘zidir. -kash affiksi ot va sifat yasashda ishlatiluvchi unumli qo‘shimcha (mehnatkash, aravakash).

*Eng qizig‘i, sportga ishqibozlik tufayli yo‘qotgan vaqtinga hech qachon achinmayman. Axir, sportga ishqibozlik ham **orkashlikning** bir ko‘rinishi-da! Ori bor odam hech qachon dunyoning nomardliklariga beparvo qarab turmaydi. [2,5]*

“Orkashlik” so‘zi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lmagan, lekin muallif tomonidan ijodiy yo‘l bilan yaratilgan okkazonal birlikdir. So‘z tarkibida “or” (vijdon, nomus) va forscha -kash (egasi, sohibi) komponentlari birlashib, “or egasi bo‘lishlik, vijdonlilik” ma’nosini bildiradi. Ushbu birlik yordamida muallif sportga bo‘lgan sadoqatni axloqiy qadriyatlar bilan bog‘laydi. “Orkashlik” bu o‘rinda vijdon, or va halollikni anglatuvchi poetik tushunchaga aylangan bo‘lib, muallif tilidagi individual ijodkorlikning yorqin namunasi sifatida e’tirof etiladi.

## XULOSA

Til — har bir ijodkor qo‘lida yangidan jilolanadigan, o‘z imkoniyatlarini cheksiz namoyon etuvchi tirik tizimdir. Ijodkorning tildagi yangicha yondashuvi, mavjud birliklarga o‘ziga xos ma’no yuklashi natijasida okkazonalizmlar vujudga keladi. Bu kabi so‘zlar adabiy til boyligini kengaytiradi, obrazlilikni oshiradi hamda shoirning individual uslubini yaqqol ko‘rsatadi. Usmon Azim ijodida uchraydigan okkazonal birliklar shoirning so‘zga yangicha nafas, yangi badiiy ohang bag‘ishlaganidan dalolat beradi. U so‘z orqali nafaqat ma’no, balki ruhiy holat, his-tuyg‘u va dunyoqarashni ifodalashga erishadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Розинтель Д.Э., Теленкова М.А. Словарь – справочник лингвистических терминов. М.:Просвещение. 1967.С.197
2. Азим У. Сўнгсўзлар. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. -512 б.
3. То'хтасинова О.У. “O'zbek tilida leksik okkozionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari”. Filol.fan nomz. Dissert, avtoref. -Т., 2007.
4. Шамсиддинов Х. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол.фан.докт...дис.-Тошкент; 1999